SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 1 - aprel 135-9-124-Q/22 Guliston tumani hokimligi

Gulsiton tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qaroriga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash hamda obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Guliston tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari M.Urinbayev, tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Murotillayev)ga:

-fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

-sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi (B.Murotillayev) hamda qabristonlarning ma’muriyati:

-xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va

sifatli bajarilishini;

-qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, ob’yektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (X.Chelibayev), “Guliston hayoti” gazetasi tahririyati (B.Norjigitova)ga Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda “Guliston hayoti” gazetasida chop yetilishi tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari M.Urinbayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Begimkulov**

Guliston tuman hokimining
2022 yil 1 apreldagi
135-9-124-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Gulsiton tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha

TARIFLAR MIQDORI

TT\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	BHMga nisbatan (foiz hisobida)
11.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar katta o‘lchamda)	1 o‘ringa	bepul
22.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul
33.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar kichik o‘lchamda)	1 o‘ringa	bepul
44.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar 3 yoshgacha)	1 o‘ringa	bepul
55.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	bepul
66.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul

Izoh: *Guliston tumanida qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori BHM ortishiga mutanosib ravishda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori ham ortadi.*